



## XORAZM VLOYATIDAGI O'G'UZ SHEVALARI GASTRONOMIK LEKSIKASIDA ARABIY QATLAMGA OID SO'ZLAR

**Bobojanova Shoiri Yo'ldosheva**

*Urganch davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrası,  
mustaqil izlanuvchi.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xorazm viloyatidagi o'g'uz shevalari gastronomik leksikasidagi arabiy qatlamga so'zlar va ularning o'ziga xosliklari, til xususiyatlari aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** Arabiy qatlam, gastronomik leksika, qiyam, hālisā, halva.

**Аннотация.** В данной статье отражены слова арабского пласта в гастрономической лексики огузских диалектов Хорезмской области, их специфика и языковые особенности.

**Ключевые слова:** Арабский слой, гастрономическая лексика, кийам, халиса, халва.

**Abstract.** This article reflects the words of the Arabic layer in the gastronomic lexicon of the Oghuz dialects of the Khorezm region, their specificities, and linguistic features.

**Key words:** Arabic layer, gastronomic lexicon, qiyam, halisa, halva.

**Kirish.** Ma'lumki, har bir til lug'at tarkibining boyishi asosan ichki manbalar orqali amalga oshadi. Shuning uchun o'z qatlamga oid so'zlar manbalar tilida yetakchilik qiladi. O'zbek tili lug'at tarkibining taxminan yarmini turkiy so'zlar tashkil qilgani holda, qolgan yarmini eroniy, arab, mo'g'ul, keyingi yuz yil davomida esa rus tilidan va rus tili orqali G'arbiy Yevropa tillaridan hamda, oz miqdorda bo'lsada, hind, urdu, pushtu, xitoy va boshqa tillardan kirgan so'zlar tashkil qiladi [1, -B.108].

Xorazm shevalari — o'zbek tilining og'zaki shakllaridan biri bo'lib, tarixan ko'plab til qatlamlaridan, jumladan arabiy qatlamdan kirib kelgan so'zlarni o'zlashtirgan. O'g'uz shevalarida arabiy qatlamga oid taom nomlari ko'p uchraydi. Bu hodisa tarixiy, madaniy va diniy omillar bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa Islom dini ta'siri ostida arabcha so'zlar o'zbek tilining shevalariga, jumladan, Xorazm shevalariga ham chuqur singib ketgan. Bu holat asosan islom dini bilan bog'liq madaniy, diniy va ma'naviy ta'sir natijasida yuzaga kelgan. Arab tilidan so'zlarning o'zlashtirilishi VIII asrdan boshlab, IX-X asrlarda ancha rivojlangan. Arab tilidan so'z o'zlashtirilishiga quyidagi omillar sabab bo'lgan: a) arablar istilosi, b) islom dinining keng tarqalganligi, d) arab yozuvining keng qo'llanilganligi, e) madrasalarda arab tilining o'qitilishi, f) turkiy-arab ikki .tilliliginining tarkib topganligi, g) olim va ijodkorlarning arab tilida ijod qilganligi va boshqalar. O'zbek tiliga arab so'zlari shunchalik singib ketganki, bugungi kunga kelib bu so'zlarni o'zbekcha yoki arabcha so'z ekanligini ajratib olish qiyin bo'lib qoldi. Bu holar gastronomik leksikada ham o'z aksini topadi. Arabiy qatlamga oid so'zlar nafaqat diniy va ilmiy sohalarda, balki taom nomlari va ovqat

tayyorlash bilan bog'liq terminologiyada ham ko'zga tashlanadi. Bunday nomlarga *pätir*, *halva*, *mirabba*, *qiyam*, *hālisā* kabi tub so'zlarni, *pätirsä/pätiräk*, *lo:zinā* kabi yasama so'zlarni kiritish mumkin. Quyida Xorazm o'g'uz shevalarida arabiy qatlamga oid taom nomlari keltiriladi:

Arab tilidan kirib kelgan ko'plab taom nomlari aynan diniy marosimlar, bayramlar va urf-odatlariga bog'liq taomlarda uchraydi:

**Pätir** – xamiri sut bilan yoki suv bilan qorilib, achitilmay tayyorlanadigan, kata hajmli, yupqa, qat-qat non turi. *Pätir* arabcha so'z bo'lib “*achitilmagan*”, “*ko'pirtirilmagan*” degan ma'nolarni bildiradi. Shevalarda mazkur non mahsulotining tayyorlanish usuliga ko'ra bir nechta turlari ishlatiladi. Masalan: *piyazli pätir*, *qizil pätir*, *qatlama pätir*, *go:shli pätir* kabi.

**Hālisā** – arabcha "hilm" so'zidan olingan bo'lib, Muharram oyida yoki Ramazon davrida tayyorlanadigan go'shtli va bug'doyli quyuk ovqat.

**Halva** **حلوى** – arab tilidan kirib kelgan bo'lib, un, yog', shakar bilan tayyorlanadigan shirin taom. **Halva** – bu xalqimiz sevib iste'mol qiladigan shirinlik turi. Mahmud Zamaxshariy o'zining “Muqaddimat ul-adab” asarida holva (halvo)ning bir nechta turini keltirib o'tgan. Masalan: *moziyoraj* – holvaning bir turi, *shuforij* – kesilgan holva, *xabis* – yog', asal, xurmodan tayyorlanadigan holvaning bir turi, *asida* – un va yog'dan tayyorlanadigan holvaning bir turi, *qubayto* (*qabida*, *qabit*, *qabito*, *qibot* kabi turlari ham bor) – holvaning bir turi [2, -B. 342-343] kabi.

Alisher Navoiy asarlarida ham shirinlik nomlarini ifodalivchi bir qancha so'zlar uchraydi. Masalan: **گلقد** **gulqand** – Atirgul yaprog'i bilan shakarni aralashtirib oftobda pishirilgan holva.

*Yuzu la'li hajridin bemor o'lubmen, ey hakim.*

*Umr zoyi' qilma, qilmas chunki ul gulqanding iloj* [3,-B. 167.].

O'g'uz shevalarida "halvaning" ko'plab turlari mavjud: *bug'doy halvasi*, *sariq halva*, *qovurilgan halva*.

**Tabax** (arabcha “*lagan*, *idish*”) – taom solinadigan idish nomi sifatida qo'llaniladi.

**Mag'iz** – arabcha "mag'z"dan, yong'oq ichki qismi. Xorazmda halva yoki shirinliklarda ishlatiladi.

**Xulosa.** Xorazm o'g'uz shevalarida arabiy qatlamga oid taom nomlari asosan diniy, marosimiy va shirinliklarga oid leksikada keng qo'llanadi. Bu nomlar o'zbek tilining umumiy lug'atiga kirib borgan bo'lsa-da, Xorazm shevalarida ular o'ziga xos fonetik o'zgarishlar va madaniy kontekst bilan ajralib turadi. Arabiy qatlamga oid taom nomlari Xorazm xalqining diniy e'tiqodi, qadriyatlari va tarixiy-madaniy taraqqiyotining ajralmas bir bo'lgi sifatida xizmat qiladi.



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составида тожик-форсча арабча сўзлар// Навоийга армуғон. – Тошкент: “Фан”, 1968. – Б. 108.
2. Замахшарий М. Муқаддимат ул-адаб. – Тошкент, 2018. 1-жилд. – Б.342-343.
3. Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. – Тошкент, 1972. – Б.167.

